


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60110200 – Maktabgacha ta’lim bakalavriat
ta’lim yo‘nalishining

MALAKA TALABLARI

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil « 7 » 08 dagi 344 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar ta'lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

1. 60110200-Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....	4
1.1. Qo'llanish sohasi.	4
1.1.1. 60110200-Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2. 60110200-Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.	4
1.2.1. 60110200-Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. 60110200-Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	5
1.2.3. 60110200-Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 60110200-Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2. 60110200-Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	7
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	8
2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	8
2.4. Kvalifikatsiya	9
Bibliografik ma'lumotlar.....	10
Kelishuv varag'i	11

1. 60110200- Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60110200- Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 3 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 60110200- Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 60110200 – Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlash o'quv reja va fan dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha pedagogika sohasida kadr tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

– 60110200- Maktabgacha ta'lim yo'nalish bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor - o'qituvchilari;

– ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi talabalar;

– o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

– bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya va imtihon komissiyalari;

– oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilotlar.

1.2. 60110200-Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60110200-Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

- Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachisi, uslubchisi kasb standartiga muvofiq Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachisi, uslubchisi maqomida pedagogik faoliyat olib borish;

- o'rta maxsus va professional ta'limda maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha texnukumlarida maktabgacha ta'lim metodikalari o'qituvchisi mos ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

- Maktabgacha ta'lim fanlar yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot institutlarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash;

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari kasb standartiga muvofiq ta'lim muassasasini boshqarish;

- Maktabgacha ta'lim, professional ta'lim muassasalari, oliy ta'lim muassasalarida laborant, kabinet mudiri sifatida faoliyat yuritish kabi kompleks masalalarni majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60110200-Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

- Maktabgacha ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida;

- Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi idoralarda;

- O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida;

- davlat boshqaruv organlari, o'rta, o'rta maxsus kasbiy ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida;

60110200-Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriyat bitiruvchilari o'qishni tamomlagandan so'ng, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda faoliyat olib borish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, Maktabgacha ta'lim muammolari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bog'chalarida kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. 60110200-Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- pedagogik;
- ilmiy-tadqiqot;
- ma'naviy-ma'rifiy;
- tashkiliy-boshqaruv.

1.2.4. 60110200-Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60110200-Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriyat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Pedagogik faoliyatida:

- o'quv jarayonini rejalashtirish: DTS va O'D larining maqsadlariga muvofiq o'quv reja ishlab chiqish, tarbiyalanuvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturlarini moslashtirish, mashg'ulotning aniq maqsad va natijalariga ko'ra mashg'ulot rejasini ishlab chiqish, differensial yondashuv asosida mashg'ulot shakllari va usullarini rejalashtirish, o'quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish;

- ta'lim samaradorligini ta'minlash;

-bolalarni h

.ar tomonlama rivojlantirish va maktab ta'limiga tayyorlash;

- bolalarda jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzini shakillantirish;

-bolalarda nutq,muloqat,o'qish va yozish malakalarini rivojlantirish;

-bolalarda bilish jarayonini rivojlantirish;

-bolalarda ijodiy rivojlanishni ta'minlash;

-xquqiy me'yoriy hujjatlar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tarbiya faoliyatini tashkil qilish;

-rivojlanishida jismoniy va psixik nuqsoni bo'lgan bolalarni ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.

- **o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish:** ta'lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini taxlil qilish, mashg'ulot rejasi va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish, baholash mezonlarini bilishi va amalda qo'llay olishi, mavjud muammolarni aniqlay olishi va taxlil qilish

- **tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish:** tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv shakl va usullarini mashg'ulot hamda mashg'ulotdan tashqari ishlarda qo'llash, tarbiyaviy ishlarda tarbiyalanuvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olishi, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ustavi va ichki tartib qoiadalariga muvofiq tarbiyalanuvchilar uchun aniq odo-axloq qoidalarini o'rnatish, ijtimoiy sog'lom muxitni yarata olish, tarbiyalanuvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish

- **xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash:** Tarbiyalanuvchilar orasida o'zaro hurmat muhitini yaratish, tarbiyalanuvchilarga maktabgacha ta'lim tashkilot hayotida teng imkoniyatlar yaratsa, nizoli vaziyatlarda optimal yechimli qaror chiqara olishi, tarbiyalanuvchilar bilan individual ishlar olib borishi, zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishlashga yordam bera olish;

- **o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish:** muntazam malaka oshirish kursaridan o'tish, fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash, kasbiy faoliyat yuzasidan seminar va treninglarda ishtirok etish hamda tashkil etish, o'zaro mashg'ulotlarda qatnashish, mashg'ulotlarni tahlil qilish, ochiq mashg'ulotlar o'tkazish, kasbiy faoliyatda kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish;

- **hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik o'rnatish:** Tarbiyalanuvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) ta'lim jarayoniga Maktabgacha ta'lim tashkilot hayotiga jalb qilish, tarbiyalanuvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) tarbiyalanuvchilarni rivojlanishi va ta'lim muhiti to'g'risida qaror qabul qilishda ishtirok etishga jalb etish, tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va tarbiyalanuvchilarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar,psixologlar, jamoat tashkilotlari va bo'limlari (Yoshlar ittifoqi) bilan hamkorlik qilish;

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

– Maktabgacha ta'lim sohasida ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishidagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

– Maktabgacha ta'lim doir internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish hamda amaliyotga bevosita tadbiq etish;

– Maktabgacha ta'lim o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

– ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

– ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;

– Maktabgacha ta'lim doir tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

– Tarbiyalanuvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;

– globallashtirish sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

– pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

– jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

– fikrlar har xil bo'lgan sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish;

– bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lish.

2. 60110200-Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- shaxsiy o'sishga intilishni shakllantirish va ob'ektiv baholash, shuningdek, ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarning asosiy qoidalari va metodlaridan samarali foydalana olish;

- ona tilida o'z fikrlarini tizimli va erkin bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash, ommaviy nutq so'zlash uchun ona tili va chet tillaridan birida yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini egallaganlik;

- axborotni olish, saralash, saqlash va qayta ishlash metod, usul va vositalaridan foydalanish va mediasavodxonlik; global kompyuter tarmoqlar bilan ishlash ko'nikmalariga egalik.

- ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish yutuqlariga erishish tamoyillarini anglash;

- gigiena, mehnat muhofazasi va tashqi ta'sirlardan himoya qilish qoidalari talablariga muvofiq, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishga qobiliyatlilik.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish;

- ta'lim jarayoni sub'ektlarining birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o'zaro harakatini tashkil etish usullarini egallaganlik;

- kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo bog'liqlikni amalga oshirish, shuningdek, nazariya va amaliyot uyg'unligini, uzviylik va uzluksizligini ta'minlash;

- tanqidiy fikrlash metodikasini o'zlashtirganlik;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlar tarbiyachisi texnika xavfsizligini ta'minlash va laboratoriya tajribalarini xavfsiz o'tkazish;

- inklyuziv ta'limga qadriyatli munosabatning tarkib topganligi; uzoq vaqt davolanishga muhtoj tarbiyalanuvchilar bilan ishlash (gospital pedagogika) texnologiyasiga ega bo'lishi;

- ta'lim oluvchilarga o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik va mobillikka yo'naltirilgan o'qitishga qobiliyatlilik.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarini o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tashi hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, qo'shimcha kvalifikatsiya olishga xizmat qiladigan, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

Kunduzgi ta'lim shaklida tahlil oluvchi talabalarning 4+2 tartibdagi malakaviy amaliyoti 3-6 semestrlarda amalga oshiriladi. Bunda haftaning 4 kunida nazariy va amaliy ta'lim, 2 kunda amaliyot o'tkaziladi.

2.3.1. 60110200-Maktabgacha ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha o'quv yuklamalari:

O'quv fanlari bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Kunduzgi ta'lim shaklida ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	3210	107
Tanlov fanlari	1440	48
Malakaviy amaliyot	750	25
jami	5400	180

2.3.2. 60110200-Maktabgacha bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklama hajmi (soatda)	Umumiy yuklama hajmi (kredit)	Semestri
	Majburiy blok	3210	107	
PSY108	Umumiy psixologiya	300	10	1,2
O'EYT104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
MSVAX104	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati	150	5	2
O'RT104	Amaliy o'zbek (rus) tili.	180	6	1
FALMAD104	Falsafa	120	4	2
BSIFO'107	Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish	180	6	1
BIM107	Bolalarning ijtimoiy moslashuvi	180	6	1
MTTE110	Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish	300	10	1,2
EMTSHM204	Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi	150	5	2
PED208	Umumiy pedagogika	240	8	3,4
InkT.GP304	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	120	4	4
DIN204	Dinshunoslik	120	4	3
MO'M208	Nutq o'stirish metodikasi	120	4	4
BJT208	Bolalar jismoniy tarbiyasi	240	8	3,4
TFO'M208	Tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi	150	5	3
TBTM3010	Tabiat bilan tanishtirish metodikasi	270	9	5,6
BMTM310	Bolalar musiqiy ta'limi metodikasi	150	5	6
MTSHO'M204	Maktabgacha ta'limda chet tilini o'qitish metodikasi	120	4	5
	Tanlov bloki	1440	48	3-6
	Malakaviy amaliyot	750	25	2-6
	JAMI	5400	180	

2.4. Kvalifikatsiya:

Pedagog. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogi va uslubchisi.

UDK 372.0

Tayanch so'zlar:

Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat ob'ekti, pedagog, maktabgacha ta'lim tarbiyani tashkil etish, bolalarning ishtimoiy moslashuvi, bolalarni saxnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish, maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari, nutq o'stirig metodikasi, bolalarda jismoniy tarbiya, tasviriyl faoliyatga o'rgatish majburiy fanlar, tanlov fanlari, 4+2 amaliyot, kasbiy faoliyat turi, amaliyot, amaliyot ob'ekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi

Kelishuv varag'i

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:


Toshkent davlat pedagogika universiteti


A.Kirgizbayev
M.O'.

KELISHILGAN:


O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi


direktori  Sh.Yakubov
2023-yil « 26 » 
M.O'.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi


Respublika ta'lim markazi
direktori  Sh.Sattorov

2023-yil « 26 » 
M.O'.

Jizzax davlat pedagogika universiteti

rektori  Sh.Sharipov
2023-yil « 26 » 
M.O'.

Guliston davlat pedagogika instituti
rektori v.b.

 A.Qalandarov
2023-yil « 26 » 
M.O'.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
60110200 – Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining
ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari
o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

"26" *iyul* 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi direktori Sh.Sattarov, Jizzax davlat pedagogika universiteti rektori prof. Sh.Sharipov, Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori prof. A.Kirgizbaev birgalikda TDPUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60110200 – Maktabgacha ta'lim bakalavriat yo'nalishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son hamda "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-290-son Qarorlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 27-oktabrda hisobga olingan(hisob raqami 43) O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim vazirining 2021-yil 19-oktabrdagi "«Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar» O'zbekiston Respublikasining Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 35-2021-son buyrug'i hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi
Respublika ta'lim markazi direktori

Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori, professor

Toshkent davlat pedagogika universiteti
rektori, professor

Sh.Sattarov
Sh.Sattarov
Sh.Sharipov
Sh.Sharipov
A.Kirgizbayev
A.Kirgizbayev

